



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



SANOAT XIZMAT TARMOQLARI

Bobojonova Yulduz Rifat qizi

*Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy
fanlar fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Maqolada sanoat xizmatlari tarmoqlarining mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Sanoat xizmatlari tarmoqlari ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, uskunalar va texnologiyalarni saqlash, ta'mirlash hamda modernizatsiya qilish kabi xizmatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu xizmatlar innovatsion yechimlarni joriy etish va sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'yaydi. Maqolada sanoat xizmatlari tarmoqlarining bugungi holati, ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va kelajakdagi tendensiyalar yoritilgan. Maqola sanoat xizmatlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda ushbu soha rivojlanishiga qiziqqan keng auditoriya uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: sanoat xizmatlari, ishlab chiqarish, texnik xizmat ko'rsatish, modernizatsiya, innovatsiya, raqobatbardoshlik, iqtisodiy rivojlanish.

Transport tizimi – har qanday mamlakat, hududning, aholi punkti xo'jalik majmuasining muhim elementlaridan biri. Transport to'ri muhim darajada xo'jalik va aholi joylashuvi tizimini, ya'ni hududiy jamiyat tizimining konfiguratsiyasini belgilaydi. Oqilona tashkil etilgan transport tizimi geografik mehnat taqsimotidan yaxshi foydalanish imkoniyatini yaratadi, ishchi kuchi harakatchanligini kafolatlaydi, aholining aloqalarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydi. Ahamiyatiga ko'ra sanoat va qishloq xo'jaligidan keyingi o'rinda turadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlar va iqtisodiy rivojlanishda ortda qolayotgan hududlar orasidagi masofani qisqartirish katta ahamiyat kasb etmoqda hisoblanadi. Bu erda asosiy vazifa sifatida iqtisodiy faoliyat darajasi yuqori bo'lgan hududlargacha masofani qisqartirish, transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar hisobiga ishlab chiqarish omillarining harakatchanligini oshirish va transport harajatlarini kamaytirish belgilangan. Bu esa o'z navbatida transport tizimining hududiy tashkil etilishini takomillashtirishni talab etadi. Bunday murakkab vazifani bajarish uchun barcha mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish talab etiladi. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har qandy mamlakatda transport tizimini rivojlantirmasdan, milliy transport tizimini shakllantirmasdan turib, barqaror taraqqiyotni ta'minlash qiyin. CHunki milliy iqtisodiyotni transport tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Transport muhim infratuzilma sifatida mintaqalarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Globallashuv sharoitida transport tizimi mintaqalarning integratsiyalashuvi, xalqaro mehnat taqsimoti shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ma'lumki, ijtimoiy-iqtisodiy geografiya - jamiyatning hududiy tashkil etilishi, uning qonun va qonuniyatlarini tadqiq etadigan geografik fanlar tizimidir. Mazkur fan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy geografiya kabi tarmoqlardan tashkil topgan. Iqtisodiy geografiya o‘z navbatida oltita yo‘nalishga ega. Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilganidek, ular orasida transport geografiyasi alohida o‘ringa ega bo‘lib, chunki keltirilgan boshqa barcha sohalar ushbu tizimning samarali tashkil etilishiga bog‘liq. **Transport** so‘zi aslida lotinchadan olingan bo‘lib, *transporto*-“*tashiyman*”, “*tashimoq*” degan ma’noni anglatadi.

Transport geografiyasi – deganda biz muayyan bir hududlarning transport bilan ta’minlanganlik darajasi, joylashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni, xususiyatlarni va qonuniyatlarini, transportning hududiy tarkibini o‘rganuvchi ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning tarmog‘ini tushunamiz.

Transport geografiyasining ob’ekti sifatida muayyan hududlarda transport chiziqlari (liniyalari) va tugunlari joylashuvi, transport tarmoqlarining shakllanishi, yuk va yo‘lovchi oqimlari, transportning aholi joylashuvi va boshqa tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatları, iqtisodiy rayonlar shakllanishida transportning tutgan o‘rnı, transport tizimining rayonlashtirilishi bilan bog‘liq masalalar hisoblanadi. Bizning fikrimizga ko‘ra, transport geografiyasi ob’ektiga yuk va yo‘lovchi tashish, yuk va yo‘lovchi oqimlarining hududiy joylashuvi, aloqa yo‘llari, transport to‘rlarini kiritishimiz mumkin.

Transport geografiyasining predmeti hududiy transport tizimi elementlarining o‘zarofaoliyati hisoblanadi va ular transport-geografik munosabatlarda namoyon bo‘ladi transport tortishuvi, hududiy joylashuvi, ya’ni ob’ektlarning bir-biridan uzoq yoki yaqinligi, transport-geografik joylashuvi, transport bilan ta’minlanganlik, hududning tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog‘liqligi va o‘tkazuvchanligi.

Birinchi marta “transport geografiyasi” tushunchasini nemis olimi Albert Gyots amaliyotga kiritgan. Transport geografiyasining asoschilari sifatida tan olingan Iogan Kol transportning ierarxik modelini tuzgan1, Leon Lalann temir yo‘l to‘rlari nazariyasini ishlab chiqqan, Fridrix Ratsel («Antropogeografiya» 1897) makon va masofalarni zabit etishda aloqa yo‘llarning ahamiyatini alohida qayd etgan, Alfred Gyottner esa transport geografiyasini transport ob’ektlarning geografik tarqalishi (joylashuvi), er maydonining turli qismlarida ular o‘rtasidagi farqlar to‘g‘risidagi fan, deb ta’riflaydi. Keyinchalik Karl Dove (1905) va Kurt Xassertlar (1913) turli mamlakatlarning transport tarmog‘i zichligi, transport oqimlari yo‘nalishi va o‘lchamini hisob-kitob qilganlar, transport bilan ta’minlanganlik darajasini e’tiborga olganlar.

Amerikalik olim Edvard Ulman (1954) transport geografiyasining vazifasi transport oqimlari yo‘nalishlari va o‘lchamini tadqiq etish yo‘li bilan turli hududlarning transport aloqalari (ularning hududiy harakati) va transport ta’riflarini tahlil qilish, tabiiy sharoitlarning transport tizimlari shakllanishi va faoliyat yuritishiga, transportning mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish deb hisoblagan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



1990-yillardan boshlab esa transport geografiyasida transport loyihalari bo‘yicha infratuzilma bilan ta’minlanish darajasi, yo‘lovchi (inson)larning transport harakatchanligi tahlil qilinishi boshlandi. SHuningdek, yangi yo‘nalish, ya’ni shahar transporti geografiyasi yuzaga keldi.

Rossiyada transport geografiyasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarga S.V.Bernshteyn-Kogan, I.V.Nikolskiy kabi olimlar asos solganlar. SHuningdek, S.B.SHlixter mintaqalarining integratsiyalashuvida transport omili, V.N.Bugromenko zamonaviy transport geografiyasi, A.A.Nikolskiy transportni rayonlashtirish, M.I.Galitskiy, S.K. Danilov, A.I. Korneevlar transportning iqtisodiy geografiyasini tadqiq etganlar. N.F.Golikov infratuzilma geografiyasi, N.N.Kazanskiy, V.S.Varlamov, M.X.Gankin va boshqalar aloqa yo‘llari geografiyasi, N.P.Kayuchkin hududni transport jihatdan o‘zlashtirishning geografik asoslari, S.A.Tarxov esa transport to‘rlarining evolyusion morfoloyiyasini tadqiq etganlar.

Hozirgi davrning yirik transportchi olimi S.A.Tarxov fikriga ko‘ra, geografiya fanida “hududiy transport tizimi” tushunchasi tadqiqot ob’ekti sifatida o‘zida transport tizimlarini o‘rganish xususiyatlarini aks ettiradi va “geografiya transportni muayyan bir hududning aniq tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan mustahkam bog‘langan elementi sifatida o‘rganadi” Transport tizimi bir qator fanlar uchun an‘anaviy tadqiqot ob’ekti hisoblanadi (texnik, muhandis, iqtisodchi, sotsiolog va boshq.). Lekin, geograflar uchun birinchi navbatda transport tizimining hududiy tashkil etilishi, uning “tabiat-aholi-xo‘jalik” majmuasi va boshqa hududiy komponentlar bilan o‘zarofaoliyatini tadqiq etish muhim hisoblanadi.

SHu bilan birga hududiy transport tizimi sifatida “cheklangan ijtimoiy iqtisodiy makon”da bir butun tizimni tashkil etuvchi transport turlarining majmuasidir. Ushbu makonda transport turlarining o‘zaro harakati faol amalga oshadi.

Transport geografiyasi tarkibi

SHu bilan birga, yirik olimlar transport geografiyasini nazariy, tarmoq, mintaqaviy va ijtimoiy transport geografiyasi kabi tarmoqlarga ajratadilar *Nazariy transport geografiyasida* alohida transport-geografik ob’ektlari (transport to‘rlari, tugunlari, oqimlar to‘rlari) va transport-geografik munosabatlarning shakllanishi hamda faoliyat yuritishi iqtisodiy geografik jihatdan tahlil qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev, S. (2020). "Industrial services and their economics". Tashkent: Ministry of Economy and Industry of the Republic of Uzbekistan.
2. Murodov, R. (2019). "Economics of services: theory and practice". Tashkent: National University of Uzbekistan.
3. Khudoyberdiev, A. (2021). "Industry and services: interdependence". Samarkand: Samarkand State University.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



4. Karimov, B. (2022). "Development of the services sector in Uzbekistan". Tashkent: Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.
5. Turaev, D. (2023). "Industrial services and their competitiveness". Bukhara: Bukhara State University.
6. Rakhimov, I. (2021). "Innovations in the service sector". Tashkent: Ministry of Innovative Development of Uzbekistan.
7. Nurmurodov, E. (2020). "Industrial Services and Their Management". Karakalpakstan: Karakalpak State University.

